



DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF FUTURE TECHNOLOGIES

Abdieva Saltanat Patullaevna

Nukus State Pedagogical Institute, 1st-year doctoral student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15696646>

ARTICLE INFO

Received: 14th June 2025

Accepted: 18th June 2025

Online: 19th June 2025

KEYWORDS

Professional competence, technological science, technological knowledge and skills, advanced technologies, an integrative approach, the development of professional competence.

ABSTRACT

The problem of developing professional competence is still at the center of scientific work. On this basis, it is advisable to identify the specific professional competences of teachers of technology, who work with a special approach in the conditions of modern education, and study the methods of their development. This article presents the professional competencies of future technology educators and the main ways and effective methods of developing them. It also analyzes the level of professional training required from the teacher of technology in the modern educational process, innovative approaches.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЙ

Абдиева Салтанат Патуллаевна

Нукусский государственный педагогический институт, докторант 2-го курса

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15696646>

ARTICLE INFO

Received: 14th June 2025

Accepted: 18th June 2025

Online: 19th June 2025

KEYWORDS

Профессиональная компетентность, технология, технологические знания и навыки, современные технологии, интеграционный подход, развитие профессиональной компетентности.

ABSTRACT

Проблема развития профессиональной компетентности до сих пор находится в центре научной работы. На этой основе целесообразно выявить и изучить методы развития специфических профессиональных компетенций преподавателей технологий, действующих в условиях современного образования с особым подходом. В этой статье представлены профессиональные компетенции будущих преподавателей технологий и основные пути и эффективные методы их развития. Также анализируются уровни профессиональной подготовки, инновационные подходы, требуемые от преподавателя технологий в современном образовательном процессе.

**BO'LAJAK TEXNOLOGIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH****Abdieva Saltanat Patullaevna**

Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15696646>**ARTICLE INFO**Received: 14th June 2025Accepted: 18th June 2025Online: 19th June 2025**KEYWORDS**

Kasbiy kompetentlik, texnologiya fani, texnologik bilim va ko'nikmalar, zamonaviy texnologiyalar, integratsion yondashuv, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish.

ABSTRACT

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muammosi bugungi kunga qadar ham ilmiy ishlar markazida bo'lgan. Shu asosida zamonaviy ta'lim sharoyitida alohida yondashuv bilan faoliyat olib boradigan texnologiya o'qituvchilarining ham o'ziga xos kasbiy kompetentliklarini aniqlab ularni rivojlantirish usullarini o'rganish maqsadga muvofiq. Ushbu maqolada bo'lajak texnologiya o'qituvchilariga xos kasbiy kompetentliklar va ularni rivojlantirishning asosiy yo'llari va samarali usullari keltirilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida texnologiya fani o'qituvchisidan talab etiladigan kasbiy tayyorgarlik darajalari, innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kirish. XXI asr – innovatsiyalar, axborot kommunikatsiya tizimlari va raqamli texnologiyalar asri bo'lib, bu jarayon ta'lim tizimiga ham katta ta'sir qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ilgari surgan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi"da ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga doir yo'nalishida ta'lim sohasiga ham muhim vazifalarni belgilab berdi. Umumta'lim maktablaridagi "Mehnat ta'limi" fani "Texnologiya" fani deb o'zgartirilib, ushbu fan mazmuni kengaytirildi, ya'ni innovatsion texnologiyalar, ulardan samarali foydalanish kabi vazifalar yuzasidan fan tarmog'ida o'rgatilishi kerak bo'lgan mavzular zamonaviylashtirildi va takomillashtirildi. Bunday sharoyitta texnologiya fani orqali o'quvchilarda texnik tafakkur va ijodiy yondashuvni, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yosh avlodni kichkinaligidan mehnatga o'rgatish, jismoniy faollikka, ijodiy fikrlashga qiziqtirish kelajakda yaxshi samara beradi.

Texnologiya fanining maqsadi o'quvchilarda mehnat madaniyati, kasbga yo'naltirish, ijodiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish orqali ularni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish, hayotga, ishlab chiqarishga tayyor shaxs sifatida tarbiyalash hisoblanadi.[5] Bu fan o'quvchilarni nafaqat qo'l mehnatiga o'rgatadi, balki ularni ijodkor, mas'uliyatli, o'z kasbini tanlay oladigan va texnik tafakkurga ega shaxsni yetishtirishni maqsad qiladi. Fanning mazmuni o'quvchilarning yoshi, fiziologik xususiyatlariga qarab kengayib, murakkablashib boradi. Masalan, 4-5 sinflar uchun "Texnologiya" darsliklarida o'qituvchi texnologiya va texnologik vositalar, texnik konstruksiyalash va modellashtirish, robototexnika asoslari, zamonaviy kasblar (dizayner, marketolog, interyer dizayner, muhandis dasturchi) haqida, shuningdek, eskiz, model, maket, modellashtirish, kontruktorg'lash va 3D ruchkalarda har xil



o'lchamli obyektlarni yasash kabi mavzularni o'rgatishi kerak bo'ladi. Bundan keyingi sinflarda ham mavzular va o'quvchilar o'rganishi kerak bo'lgan nazariy va amaliy bilimlar murakkablashib boradi. Mana shunday vaziyatta ushbu fan o'qituvchisidan chuqur bilim va tajribalarni, kasbiga oid haratarafli bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zida jamlagan kasbiy kompetentligi yuqori kadr bo'lishni talab qiladi.

Asosiy qism. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining roli nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni shakllantiruvchi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday yuksak vazifalarni muvaffaqiyatli ado etish uchun pedagogda zarur kasbiy kompetentlik shakllangan bo'lishi shart. Kasbiy kompetentlik - o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali tashkil etishi, o'quvchilar bilan sog'lom muloqot yuritishi va kasbiy faoliyatda doimiy rivojlanib borishini ta'minlovchi mezon hisoblanadi ya'ni o'qituvchining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kommunikativ va axloqiy fazilatlarini, innovatsion faoliyatga tayyorligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini qamrab oluvchi murakkab tizimli tushuncha.[2] A.V.Xutorskiy "kompetentlik - faqat bilim emas, balki ularni hayotiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatidir." deb, ta'kidlaydi.

Pedagoglarning kasbiy kompetentliklari va ularni rivojlantirish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlar pedagogika sohasidagi tadqiqotlarning ko'p qismini tashkil etadi. Jumladan, rossiyalik olim L.V.Bayborodova kompetentlik yondashuvi asosida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish masalasini ilgari surib, kompetentlik yondashuvni o'qituvchilar tayyorlash tizimining markaziga qo'yadi. G.A.Abdudodirov "Pedagogik kadrlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda integrativ yondashuv" nomli dissertatsiyasida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda fanlar aro integratsiya, ya'ni pedagogika, psixologiya, texnologiya va AKT fanlarini uzviy uyg'unlashtirish zarurligini asoslab bergan. X.X.Turaqulov "Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari" mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qilgan. Unda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda motivatsiya, o'zini anglash va refleksiya mexanizmlarining roli katta ekanligini asoslaydi. U o'qituvchining o'z ustida ishlashi uchun samarali metodlar tizimini ishlab chiqqan.

A.S.Sagdullaev pedagogik faoliyatda axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha olib borgan ilmiy ishida o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishda interaktiv platformalardan foydalanishni taklif qiladi. Demak, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muammosi bugungi kunga qadar ham ilmiy ishlar markazida bo'lgan. Shu asosida zamonaviy ta'lim sharoitida alohida yondashuv bilan faoliyat olib boradigan texnologiya o'qituvchilarining ham o'ziga xos kasbiy kompetentliklarini aniqlab ularni rivojlantirish usullarini o'rganish maqsadga muvofiq.

O'qituvchi pedagogik jarayonning faol ishtirokchisi sifatida, o'zida bir qator sifatlarning mavjudligini ta'minlashi kerak. Misol uchun, u avvalo, muloqotda ochiq, xushmomila, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, yuzaga kelgan muammolarni ijobiy bartaraf eta olishi kerak. O'quvchilar, ota-onalar va hamkasblari bilan muvofiqda o'z fikrining to'liq va aniq ifoda etishiga e'tibor berishi lozim. Ular bilan suhbatda faqatgina noqulayliklar haqida gapirish emas, balki muvaffaqiyatlarini rag'batlantirishi, kelgusi yutuqlariga yana da ishonch bildirib gapirishi ular bilan yaxshi munosabatga yo'l ochadi. O'qituvchining so'zlarida g'amxo'rlik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, iloji boricha yuqori kayfiyatda bo'lishi lozim.



O'qituvchi shaxsininsh ushbu talablariga muvofiq kelishi, o'quvchilar, kasbdoshlari va ota-onalar orasida obro' va hurmatga sazovor bo'ladi.

Zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilariga xos bo'lgan kasbiy kompetentliklarni quyidagicha ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Texnologik bilim va ko'nikmalar. Bunda o'qitish jarayonida mazvuga mos ishlov berish usullari, texnik chizmalar, dasturiy ta'minotlar bilan ishlash, 3D modellashtirish va boshqa da texnologik bilim va ko'nikmlarga ega bo'lishi shart. Chunki, chizmalar, dasturiy ta'minotlar bilan ishlash singari yuqoridagi ko'nikmalarni mukammal bilmagan o'qituvchi bugungi kunning zamonaviy va qiziquvchan o'quvchilari oldida bilimsizligi tufayli hurmatini yo'qotadi.

2. Innovatsion yondashuv. Bu o'qituvchi kasbiy faoliyatida yangi texnologiyalarni, zamonaviy ta'lim metodlarini, interaktiv vositalarni joriy etish orqali o'z kompetentligi doimiy rivojlantirish borishi va raqamli texnologiyalarni qo'llay olishi. Innovatsion yondashuv orqali ta'limga, kasbiga oid yangiliklarni qabul qilish va qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi, o'quvchilar bilan samarali muloqot qila oladi, reflektiv faoliyatini kuchaytiradi ya'ni o'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklari yuzasida o'z ustida ishlashga moyil bo'ladi.

3. Ijtimoiy va kommunikativ kompetentsiyalar. Bu o'qituvchining jamiyatda, jamoada va professional muhitda samarali ijtimoiy munosabatlar o'rnatish jamoada axloqiy me'yorlarga amal qilish, hamkorlikda madaniyatli faoliyat yuritishni belgilaydi. Shuningdek, o'qituvchining o'g'zaki va yozma muloqotda aniq, tushunarli, empatik va samimiy bo'lishi, ota-onalar, hamkasblar bilan samarali aloqa o'rnatish qobiliyatidir. Bularning o'qituvchi shaxsida mavjudligi ta'lim jarayonida muvozanatni saqlashiga, sifatni oshirishga va insoniy munosabatlarning ijobiy shakllanishiga ta'sir qiladi.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetentsiyasi – bu o'qituvchining o'z faoliyatida raqamli vositalar, internet resurslari, multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyati va tayyorgarligini anglatadi. Ushbu kompetensiya zamonaviy ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi o'qituvchidan doimiy innovatsion yondashuv va texnologik tayyorgarlikni talab etadi. Buning natijasida pedagogik faoliyat yengillashadi, kasbiy raqobatbardoshlik oshadi. O'z ustida ishlaydigan, texnologiyalardan foydalana oladigan (kompyuter grafikasi, dizayn, platformalardan foydalanish va amaliy loyihalar yaratish va b.) o'qituvchiga mehnat bozorida talab kuchli bo'ladi.

Pedagogik-psixologik ilmiy tadqiqot ishlarida pedagoglarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishga turlicha yondashilgan. Biz maqolamizda texnologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini rivojlantirish yo'llarini alohida ko'rsatib o'tamiz.

- Integratsiyalashgan ta'lim yondashuvini qo'llash. Texnologiya o'qituvchilari uchun yaratiladigan o'quv dasturlarida nazariya va amaliyot uyg'unligi, ko'p fanli integratsiya (fizika, matematika, mehnat, dizayn va h.k.) asosida bilim berilishi lozim.

- Amaliyotga jiddiy yondashish. Pedagogik amaliyotlarda maktablardagi laboratoriya darslarida, ishlab chiqarish bilan hamkorlikdagi mashg'ulotlar orqali talabalarning kasbiy salohiyati rivojlanadi.

- Innovatsion texnologiyalardan doimiy foydalanish. 3D modellashtirish, robototexnika, raqamli ustaxona kabi innovatsion vositalarni o'rgatish orqali texnologiya fanini jozibador qilish va zamonaviylik darajasini oshirish mumkin.



- Mentorlik va murabbiylik faoliyatiga jiddiy yondashish. Ustoz-shogird an'alariga asoslangan mentorlik tizimi orqali tajribali pedagoglar bilan ishlash nazariy va amaliy ko'nikmalarni boyitadi.

Texnologiya o'qituvchisi matematika, fizika, san'at, fan va texnika yangiliklaridan doim xabardor bo'lishi, ulardan o'rinli foydalana olishi bilan bir qatorda pedagogga xos kasbiy kompetentliklarini ham doimiy rivojlantirib borishi lozim. Chunki, o'quvchilar, ularning ota-onalari va pedagogik jamoa bilan ishlashda ijtimoiy – kommunikativ kompetensiya (o'quvchilar, ota-onalar va pedagogik jamoa bilan samarali muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, o'quvchilarda jamoada ishlash va kasbga hurmat bilan yondashish ko'nikmasini shakllantirish), pedagogik kompetentlik (o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlari asosida o'qitish, darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, baholash mezonlarini to'g'ri qo'llay olish), metodik kompetensiya (o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish, kasbiy yo'naltirish va mehnat tarbiyasi asoslarini o'rgatish), axborot-kommunikatsion kompetensiyasi (kompyuter dasturlaridan foydalanish, interaktiv taqdimotlar, elektron resurslar bilan ishlash, raqamli texnologiyalar asosida loyihalar yaratishni o'rgatish), tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasi (mexnat xavfsizligi va sanitariya qoidalarini bilish ularga amal qilish, darsdan tashqari ishlarni tashkil etish, o'quv ustaxonalarini tashkil etish u yerda samarali ish olib borish), innovatsion kompetensiya (zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarning innovatsion tafakkurini rivojlantirish) kabi kasbiy kompetentliklarini shaxsiy qobiliyatlari bilan uyg'unlikda olib borish o'qituvchi faoliyatini yana da samarali qiladi.

Xulosa. Boshqa fanlardan farqli ravishda "Texnologiya" fani uzoq muddatli ya'ni maktabga ilk qadamini qo'ygan 1-sinf o'quvchilaridan boshlab ular to maktabni bitirgunicha har bir sinfdagi o'qitilishi bilan muhim ahamiyatga ega. Bu o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga yana da jiddiy yondashishni ko'rsatadi. Chunki, har bir sinfdagi o'quvchilar bilan muloqotda, ta'sir qilishda ularning yoshiga doir fiziologik xususiyatlarini ham yaxshi bilishi kerak bo'ladi.

Shu kabi jihatlarni hisobga olgan holda, o'qituvchilardagi kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga bir nechta usullarni tavsiya qilamiz:

- Loyihaviy ta'lim usuli. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini ya'ni talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, ularni muammoli vaziyatlar asosida texnologik loyihalarni ishlab chiqishga yo'naltirish;
- Portfolio metodi. Talabalarining o'z shaxsiy yutuqlari, ijodiy ishlarini portfolioga yig'ib borishi reflektiv yondashuvni shakllantiradi, o'z ustida ishlashiga turtki beradi.
- Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni maqsad qilgan, AKT, dizayn, ishlab chiqarish texnologiyalari va boshqada malaka oshirishga yo'naltirilgan seminar-treninglar, vebinarlar tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish – bu nafaqat o'qituvchining o'zini, balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardandir. Bugungi kunda mamlakatimizda bu yo'nalishda keng ko'lamlislohotlar olib borilmoqda. Shuning uchun, pedagogika ta'lim muassasalari zamonaviy texnologiyalarni chuqur egallagan, ijodiy va innovatsion fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi zarur.



References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida" PF-5712 son farmoni.
2. Azizxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.:2023.
3. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi.-T.:2000
4. Muslimov N. va b. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi va kasb tanlashga yo'llash: darslik. -T.: 2014.
5. Muslimov N va b. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.-T.:2015.
6. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari, - T.: 2019.
7. Karimova K. Kasbiy kompetensiya hamda o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari. Obrazovanie i innovatsionnie issledovaniya. 2024y.1-son.